



UDK: 801.612

Muxaram ALIMOVA,
O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti professori
E-mail: mukharam.alimova@mail.ru
Nilufar BABAJANOVA,
O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti dotsenti

PhD, dotsent Y.Mirzaaxmedova taqrizi asosida

INSON ICHKI OLAMINI AKS ETTIRISHDA EMOTSIONAL-SAMIMIY MULOQOTNING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Maqolada inson ichki olamini ifodalashda emotsional–samimiy muloqotning lingvokognitiv va lingvokulturologik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot ingliz yozuvchilari - Jeyn Osten, Emili Bronte, Jorj Eliot va Charlz Dikens asarlari misolida olib borilib, mehr, samimiyat, hurmat va empatiya kabi hissiyotlarning tildagi leksik, pragmatik hamda ekstralingvistik vositalar orqali qanday aks ettirilishi ko‘rsatiladi. Kognitiv lingvistika, pragmalingvistika va madaniyatshunoslik yondashuvlari uyg‘unlashtirilgan holda, insonning ruhiy holati, tafakkur jarayoni va muloqot madaniyati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib beriladi. Tadqiqot natijalari samimiy muloqotning milliy-madaniy qadriyatlar va ijtimoiy uyg‘unlikdagi o‘rmini aniqlaydi.

Kalit so‘zlar: emotsional–samimiy muloqot, inson ichki olami, lingvokognitiv aspekt, kognitiv lingvistika, madaniy kontekst, ifodaviy vositalar, samimiyat, empatiya, ijtimoiy uyg‘unlik, hissiy tafakkur.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ИСКРЕННЕЙ КОММУНИКАЦИИ В ВЫРАЖЕНИИ ВНУТРЕННЕГО МИРА ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В статье анализируются лингвокогнитивные аспекты эмоционально-искреннего общения в отражении внутреннего мира человека. На примере романов английских писателей рассматриваются особенности выражения эмоций - доброты, уважения, эмпатии и тепла - через лексические, прагматические и экстралингвистические средства языка. Исследование основано на интеграции подходов когнитивной лингвистики, прагмалингвистики и культурологии, что позволяет раскрыть взаимосвязь между психическим состоянием человека, процессом мышления и культурой общения.

Ключевые слова: эмоционально-искреннее общение, внутренний мир человека, лингвокогнитивный аспект, когнитивная лингвистика, культурный контекст, экспрессивные средства, искренность, эмпатия, социальная гармония, эмоциональное мышление.

LINGUOCULTUROLOGICAL ASPECTS OF EMOTIONAL-AFFECTIONATE COMMUNICATION IN EXPRESSING THE HUMAN INNER WORLD

Annotation

The article explores the linguo-cognitive and linguoculturological dimensions of emotional and affectionate communication in the expression of the human inner world. Based on English writers' novels (Jane Austen, Emily Brontë, George Eliot, Charles Dickens), it examines how sincerity, empathy, respect, and affection are conveyed through lexical, pragmatic, and extralinguistic means. Integrating approaches from cognitive linguistics, pragmalinguistics, and cultural studies, the research identifies national-cultural patterns that determine emotional expression in English discourse. The findings highlight the role of emotional sincerity as a key element of social harmony and moral empathy in communicative behaviour.

Keywords: emotional and affectionate communication, human inner world, linguo-cognitive aspect, cognitive linguistics, cultural context, expressive means, sincerity, empathy, social harmony, emotional cognition.

Kirish. Globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar yoshlarning intellektual salohiyatini, keng dunyoqarashini hamda ta'limiy motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Bugungi kunda ta'lim tizimi faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki shaxsning muloqot madaniyati, emotsional savodxonligi va madaniy qadriyatlar asosida fikr bildirish qobiliyatini rivojlantirishni ham talab etadi. Zamonaviy ta'limda faol, ongli va maqsadga yo'naltirilgan mutaxassislarni tayyorlash, avvalo, til o'rganuvchilarning motivatsion maydonini optimallashtirish, ularni ijtimoiy-psixologik jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish bilan bog'liq. Bu jarayon ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, chet tillarini o'qitishda inson omili - tafakkur, his-tuyg'u va madaniy qadriyatlar uyg'unligini chuqurroq anglash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillar uchun taraqqiyot strategiyasiga oid Prezident farmonida ta'lim sifatini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish hamda oliy ta'lim muassasalarida sifatni baholash tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Ushbu yo'nalishlar shaxsni faqat bilimli emas, balki ruhiy-emotsional jihatdan yetuk, milliy va madaniy qadriyatlarga sodiq mutaxassis sifatida shakllantirishni ko'zda tutadi. Shu munosabat bilan xorijiy tillarni o'qitish tizimini zamonaviy usullar asosida rivojlantirish, til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish, til o'rganilayotgan xalq madaniyati, ijtimoiy munosabatlarini o'rganish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Samimiy va mehrga asoslangan muloqot inson ruhiyatining eng chuqur qatlamlarini aks ettiradi. Ingliz

yo'zuvchilari romanlari asosida bu jarayonni tahlil etish orqali ingliz xalqining madaniy qadriyatlarini, ijtimoiy me'yorlari hamda psixologik o'ziga xosliklari haqida boy ma'lumot olish mumkin. Affektiv muloqot - ya'ni mehr, hurmat va empatiya ifodalari - millatning ijtimoiy uyg'unlik, o'zaro ehtirom va emotsional muvozanat haqidagi qarashlarini yoritadi. Ingliz adabiyotida emotsional-samimiy muloqot inson ichki olamini ochib beruvchi asosiy badiiy vosita hisoblanadi. Bu, ayniqsa, Jeyn Osten, Sharlot Bronte, Emili Bronte, Jorj Eliot, Charlz Dikens kabi yo'zuvchilarning asarlarida yorqin ko'rinadi. Ularning qahramonlari nutqida hurmat, iliqlik, ehtiyotkorlik va hissiy uyg'unlik ingliz xalqining madaniy va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. "Andisha va g'urur", "Emma", "Jeyn Eyr", "Bo'ronli tepaliklar", "Middlemarch" kabi asarlar nafaqat badiiy, balki kognitiv-madaniy laboratoriya sifatida ham xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jeyn Osten ijodida mehri bilan bilvosita ifodasi

Jeyn Osten ijodida insoniy munosabatlarda hurmat, nazokat va his-tuyg'ularni yashirin tarzda ifodalash ingliz madaniyatining o'ziga xos xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Uning "Andisha va g'urur" romani insoniy munosabatlar, ijtimoiy me'yorlar va shaxsiy his-tuyg'ular o'rtasidagi ziddiyatni yoritishda muhim o'rin tutadi. Asar markazida turuvchi Darci va Elizabet Bennet obrazlari orqali muallif ingliz jamiyatiga xos madaniy ehtiyotkorlik va his-tuyg'ularni nazorat bilan ifodalash kabi qadriyatlarini badiiy tarzda aks ettiradi. "Darcy: - You are too generous to trifle with me. If your feelings are still what they were last April, tell me so at once. My affections and wishes are unchanged, but one word from you will silence me on this subject for ever." Darsining bu so'zlarida hurmat va samimiyligni sezish mumkin. U Elizabetning hissiyotlariga ehtirom bilan yondashib, unga to'liq tanlov erkinligini beradi. Uning ohangida kuchli muhabbat sezilsa-da, u bu hislarni bevosita izhor etmaydi. Aynan shu jihat "mehri bilan bilvosita ifodasi" ("indirect expression of affection") sifatida namoyon bo'ladi - ya'ni, inson o'z his-tuyg'usini muloyimlik, nazokat va muloqot madaniyati orqali ifodalaydi. Darsi nutqida lingvistik ehtiyotkorlik, intonatsion muvozanat, so'z tanlashdagi aniqlik - bularning barchasi mehri bevosita emas, balki nazokat bilan ifodalash vositalaridir. Shu orqali Osten ingliz jamiyatidagi madaniy qadriyat - "self-restraint" (o'zini tiyish) tamoyilini badiiy darajada yoritadi. Shunday qilib, bu epizod nafaqat sevgi izhori, balki milliy-madaniy kommunikatsiyaning ifodaviy modeli sifatida ham ahamiyatlidir. Unda ayol va erkak o'rtasidagi muloqotda mavjud ijtimoiy masofa, hurmat va hissiy nazorat elementlari uyg'unlashgan bo'lib, bu Osten prozasining milliy-madaniy xususiyatini belgilovchi muhim belgidir.

Tadqiqot metodologiyasi. "Elizabeth: - You are too hasty, sir. I must first assure you that I have been the happiest of creatures, and I will continue to be so." Elizabetning Darsiga javobida quvonch va samimiy minnatdorlik ifodalaydi. U bevosita muhabbatini aytmaydi, ammo so'zlarining yumshoqligi va ohangi orqali ichki mehri sezdiradi. Bu sahnada lingvistik strategiya sifatida ayolning ichki olami ramziy tarzda ochiladi: "happiest of creatures" birikmasi metafora bo'lib, ayol qalbidagi muhabbat va hayotiy mamnuniyatni nazokat bilan ifodalaydi. Shu bilan birga, Elizabetning "I will continue to be so" iborasi optimistik affektiv modallik orqali ayolning ruhiy barqarorligi va emotsional yetukligini ko'rsatadi. Demak, Elizabet Bennetning bu so'zlari ingliz ayoliga xos madaniy xulq - his-tuyg'ularni bilvosita, nazokatli va nazoratli ifodalash an'anasi sifatida ifodalaydi. Osten bu orqali o'z zamonasidagi ingliz ayollarining ichki olami, ularning o'zini tutish madaniyati va milliy qadriyatlarini haqida chuqur psixologik tasvir yaratadi.

Sharlotta Bronteda realizm va ruhiy tenglik

Tahlil va natijalar. Charlotta Brontening "Jeyn Eyr" romani ingliz realizmining yuksak namunasi bo'lib, unda insoniy his-tuyg'ular, ayniqsa, ayol qalbining mustaqillikka intilishi chuqur psixologik tasvir orqali ochiladi. Bronte ayolni ijtimoiy va ruhiy jihatdan erkak bilan teng shaxs sifatida ko'rsatadi. Asardagi Rochester va Jeyn o'rtasidagi muloqotlarda bu tamoyil badiiy mahorat bilan yoritilgan: "Rochester: I have for the first time found what I can truly love—I have found you. You are my sympathy—my better self—my good angel." Bu jumlada muallif sevgi va hurmatni metaforik parallelizm orqali ifodalaydi. "My better self" va "my good angel" birliklari erkak qalbidagi ayol obrazining ilohiy lashtirilgan timsolini yaratadi. Bunda Rochesterning ichki ruhiy ehtiyoji - o'zini to'ldiruvchi, unga ma'naviy yuksalish baxsh etuvchi ayolni topganidan quvonchi ifodalaydi. Ushbu timsollar orqali muallif erkak qalbidagi romantik idealizatsiyani ochib beradi.

"Jane: - I am not an angel, and I will not be one till I die: I will be myself." Bu javobda ayol subyektivligining o'ziga xos manifiesti mujassam. Jane o'zini idealga aylantirishga qarshi turadi, o'z mohiyatini saqlagan holda insoniy realizmni ifoda etadi. "I will be myself" iborasi Brontening asosiy g'oyasi - ayolning o'z "men"ini anglash tamoyilini yaqqol namoyon qiladi. Bu ayolning o'z fikriga ega, mustaqil va real shaxs sifatida tasvirlanishini ko'rsatadi. Ushbu muloqot nafaqat romantik sevgi, balki empatiya va ruhiy tenglikning ifodasi sifatida talqin qilinadi. Rochesterning ilohiy ifodalari bilan ayolni ulug'lashi va Jeynning realistlik javobi o'rtasida muloqotda muvozanat vujudga keladi. Natijada muallif ayol va erkak o'rtasidagi ruhiy hamkorlikni, ularning sevgi orqali bir-birini to'ldirishini badiiy tarzda ochib beradi.

Emili Bronteda ruhiy uyg'unlik konsepsiyasi

Emili Brontening "Bo'ronli tepaliklar" asari ingliz romantizmining o'ziga xos cho'qqisidir. Asar romantik psixologizm va milliy-madaniy individualizm uyg'unligining yorqin namunasi hisoblanadi. Asarda insoniy his-tuyg'ular - ayniqsa, sevgi va ruhiy bog'liqlik - ijtimoiy me'yorlardan tashqarida, ontologik birlik darajasida talqin qilinadi. Romandagi Katerina va Hizklif obrazlari misolida inson ruhiy olamining kognitiv, metafizik va emotsional qatlamlari tahlil qilinadi. Bronte uchun sevgi - ruhiy uyg'unlikning mutlaq shakli. Katerina va Hizklif o'rtasidagi munosabat bu tushunchaning eng yorqin timsoli sifatida badiiy ifodalangan: "Catherine: - Whatever our souls are made of, his and mine are the same." Bu jumla nafaqat sevgining chuqurligini, balki ruhiy monizm - ya'ni ikki ruhning yagona mohiyatdan tashkil topganligini ifodalaydi. "Our souls are made of the same" birikmasi orqali Katerina sevgini "ontologik tenglik" sifatida tushunadi: u sevgilisini o'zining davomchisi, o'z "ichki men"ining boshqa shakli sifatida qabul qiladi. Bu fikr kognitiv metafora darajasida tahlil qilinganda: sevgi - bu ruhiy birlashuvdir. Shu tarzda Bronte sevgi obrazini metafizik maydonga ko'taradi, uni oddiy hissiy bog'liqlikdan ruhiy totalitet (butunlik) darajasiga olib chiqadi.

"Heathcliff: - I cannot live without my soul!" Bu yerda metonimik almashtirish kuzatiladi: "soul" Katerina bilan tenglashtiriladi, ya'ni sevgilisi uning hayotiy mohiyatiga aylanadi. Shuningdek, bu jumla eksistensial mazmunga ham ega: inson o'z ruhiy yarmini yo'qotsa, uning mavjudligi ma'nosiz bo'lib qoladi. Demak, Hizklif sevgini - mavjudlikning sharti sifatida qabul qiladi. Bu ifoda emotsional intensivlikning cho'qqisi bo'lib, inson sevgini o'z mavjudligining asosiy manbai sifatida anglashini ko'rsatadi. Ushbu asarda muallif milliy madaniyatdagi emotsional sadoqat, ichki qat'iyat va ruhiy mustaqillik qadriyatlarini birlashtiradi. Katerina va Hizklif o'rtasidagi sevgi G'arb falsafasidagi dualizm (tana va ruh, aql va his) g'oyalari inkor etib, yagona ruhiy mohiyatni tasdiqlaydi. Bu jihatdan

Bronte ayol ichki olamini kosmik uyg'unlik konsepsiyasi bilan bog'laydi, ya'ni ayol nafaqat muhabbat subyekti, balki ruhiy barqarorlik markazidir.

Charlz Dikensda xalqona samimiyat

Charles Dickens ingliz realizmining eng yirik vakillaridan biri sifatida insoniy his-tuyg'ularni, ayniqsa, mehr, e'tibor va sadoqatni oddiy xalq hayoti orqali ifodalashda benazir mahorat ko'rsatgan. "Buyuk umidlar" asarida muallif jamiyatning turli tabaqalari vakillari o'rtasidagi munosabatlar orqali axloqiy poklik va samimiy insoniylikni yoritadi. Asar qahramonlari Jo va Pip o'rtasidagi iliq munosabat Dikens ijodidagi milliy insonparvarlik g'oyasining ifodasidir.

"Joe: - Ever the best of friends; ain't us, Pip?"

Pip: -Ever the best of friends, Joe."

Ushbu parchadagi Jo va Pipning nutqida mehr, soddalik va sadoqat mujassam. "Ever the best of friends" iborasi doimiylik va sobitlik semasini ifodalaydi. Bu yerda "ever" leksik birligi vaqt chegarasidan tashqaridagi sadoqatni bildiradi. Shuningdek, "ain't us, Pip?" shaklidagi so'rov ohangi xalqona, mehr bilan aytilgan ifodadir. Jo obrazida ingliz xalqiga xos oddiy, ammo chuqur mehr aks etadi - bu "simple heart, honest soul" tipidagi milliy xarakterning badiiy ko'rinishidir. Pipning javobi qisqa, ammo semantik jihatdan rezonans hosil qiladi. Bu "aks-sado" effekti orqali muallif insoniy mehning ikki tomonlama tabiatini ifodalaydi, natijada ruhiy uyg'unlik vujudga keladi. Shunday qilib, Dikens ingliz madaniyatida do'stlik va samimiyatni sodda xalqona

so'zlashuv, qisqa lekin samimiy ifoda vositalari orqali ochib beradi va milliy madaniyatdagi ijobiy psixologik modelni ifodalaydi.

Xulosa. Zamonaviy raqamlashgan jamiyatda emotsional - samimiy muloqot insonlar o'rtasidagi ruhiy yaqinlikni mustahkamlash, o'zaro ishonch va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida bunday muloqot shakllari insonlar o'rtasida ruhiy barqarorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning asosiy vositasiga aylandi. Bu jarayon shuni ko'rsatadiki, emotsional-samimiy muloqot insonning ruhiy salomatligi, psixologik muvozanati va ijtimoiy moslashuvi uchun ajralmas omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida ingliz adabiyotidagi emotsional-samimiy muloqot birliklari kognitiv va lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinib, mehr, samimiyat, hurmat va empatiya singari his-tuyg'ular inson tafakkuri, madaniy qadriyatlarini hamda ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq degan xulosaga kelindi. Ularning ifodasi til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi uzviy aloqani yaqqol namoyon etadi. Kognitiv tahlil natijasida aniqlangan asosiy metaforik modellar ingliz madaniyatida hissiyotlarning konseptual tashkil topish mexanizmini ko'rsatadi. Bu modellar emotsional holatlarning axloqiy va ma'naviy mohiyatini ochib beradi. Shu asosda emotsional-samimiy muloqot nafaqat badiiy uslub vositasi, balki axloqiy idrokning shakli sifatida talqin qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Alimova M.Kh. Pragmatic approach to the analysis of connotative meaning in the English and Uzbek languages. Central Asian Journal of Education. 2021, vol.6, issue 1.
2. Alimova M.Kh. Some peculiarities of expressing connotative meaning in the English and Uzbek languages. The European Journal of Literature and Linguistics. Premier Publishing.SRO.2019. №2.
3. Bloomfield L. Language. Chicago University Press, 1933.
4. Brown, P., & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
5. Brontë, E. (1847). Wuthering Heights. London: Thomas Cautley Newby.
6. Dickens, C. (1861). Great Expectations. Chapman & Hall.
7. Fillmore C.(1982) in "Frame Semantics". 1982, Seoul: Hunshin Pub. Co.
8. George Lakoff and Mark Johnson. "Metaphors we live by". 1980, University of Chicago Press.
9. Halliday, M.A.K. (1978). Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. Edward Arnold.
10. Humboldt, W. von. (1836/1999). On Language: The Diversity of Human Language Structure and Its Influence on the Mental Development of Mankind. Cambridge University Press.
11. Kövecses, Z. (2000). Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. Cambridge University Press.
12. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
13. Leech, G. (2014). The Pragmatics of Politeness. Oxford University Press.
14. Wierzbicka, A. (1999). Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. Cambridge University Press.